

Q'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA ANTROPOSENTRIK PARADIGMA

*Pulatova Muhayyo Azimboyevna, Urganch Davlat Universiteti
tayanch doktoranti*

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

*Пулатова Мухайё Азимбаевна, докторант Ургенчского
государственного университета*

ANTHROPOCENTRIC PARADIGM IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

*Pulatova Muhayyo Azimboyevna, PhD student of Urgench State
University*



e-mail:

*muhayyo_pulatova@mail.
ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida antroposentrik tilshunoslik, uning yo'nalishlari, adabiyotlar sharhi va sohaga aloqador atamalar izohiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: paradigma, antroposentrizm, post antroposentrizm, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется антропоцентрической лингвистике на английском и узбекском языках, ее направлениям, обзору литературы и объяснению терминов, относящихся к этой области.

Ключевые слова: парадигма, антропоцентризм, пост антропоцентризм, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика.

Abstract: This article focuses on anthropocentric linguistics in English and Uzbek, its areas, a review of the literature, and an explanation of terms related to the field.

Keywords: paradigm, anthropocentrism, post anthropocentrism, cognitive linguistics, pragmatic linguistics.

Kirish. XX asr oxiriga kelib jahon tilshunosligi, turkologiya, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalishlar, yondashuvlar paydo bo'la boshladi. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish yo'lida fanda bir qator yangi sohalar yuzaga keldi. "O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab ilmiy tadqiqotlar paradigmasi o'zgardi. Ilgari fundamental fanlar nazariy g'oyalarni ilgari surgan holda hayotga joriy etilgan, ya'ni ularda "nazariyadan amaliyotga" tamoyili ustuvorlik qilgan bo'lsa, hozirgi kunda ko'p hollarda buning aksi ko'zga tashlanmoqda: u yoki bu texnologiyani taraqiyotiga bo'lgan ehtiyoj nazariy tadqiqotlar ehtiyojini belgilamoqda" [1; 93-b.]. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tilshunoslik sistem-struktur paradigmadan

antroposentrik paradigmaga qarab rivojlana boshladi. Mazkur zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining paydo bo'lishi haqida Sh.Safarov quyidagicha fikr bildirgan edi: "Fanlar, sohalar integratsiyasi – zamon talabi. Hozirgi kunda "yakka o'tning changi chiqmas"ligi aniq bo'lib qoldi. Tilshunoslik ham o'z yondoshlari bilan juftlashmoqda..." [2; 8-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning birinchi choragida yurtimizda antroposentrik tilshunoslik yo'nalishiga birin-ketin ko'plab tilshunslarimiz tomonidan yozilgan asarlar, monografiyalar nashrdan chiqdi, ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari e'lon qilindi. Shu o'rinda professor Sh.Safarovning bu yo'nalish rivoji uchun qo'shgan hissasi alohida

etiborga loyiq deb hisoblaymiz. U zamonaviy fan sohaları semantika, pragmalingvistika, kognitologiya, tarjimashunoslik kabi sohalar bo'yicha ilmiy maktab asoschisi sanaladi. Uning "Kognitiv tilshunoslik" (2006), "Pragmalingvistika" (2008), "Semantika" (2013), "Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari" (2019) kabi o'zbek tilimizda yozilgan monografiyalari antroposentrik tilshunoslik yo'nalishidagi yangi tahlil metodlari ommaviylashishiga zamin yaratadigan, yosh izlanuvchilarga tilshunoslikning ilg'or yutuqlari bilan tanishishga imkon yaratib beradigan qimmatli asarlar hisoblanadi. D.Xudayberganova ham antroposentrik tilshunoslik sohasidagi bir qancha monografiyalar muallifi hisoblanadi: "Matnning antroposentrik tadqiqi" (2013), "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" (2013) va "Lingvokulturologiya terminlarining izohli lug'ati" (2015). Olima o'zining "Lingvistik antroposentrizm va o'zbek tilshunosligi" maqolasi [11; 9-b.] va o'ndan ortiq boshqa maqola hamda tezislari antroposentrik paradigma, kognitiv faoloyat, milliy tafakkur tarzi, olamning milliy lisoniy manzarasi haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. D.Ashurova, M.Galiyeva tomonidan kognitiv tilshunoslikni ingliz tilida o'rganuvchi o'zbek talabalar uchun nashr qilingan "Cognitiv linguistics" nomli o'quv qo'llanmasida kognitiv lingvistikaning fundamental muammolari, fanning shakllanishi va rivojlanish tarixi, asosiy tushunchalar va yo'nalishlar, metodlar kabi masalalar o'z aksini topadi. O'quv qo'llanmaning ilova qismida kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalarini izohlab beruvchi glossariy berilgan [12; 107-b.].

Bugungi kunda zamonaviy ingliz tili lingvistik adabiyotlarida antroposentrik paradigma terminining o'zi deyarli ishlatilmasa ham, markazida inson turadigan antroposentrik tilshunoslikning sohalaridan bo'lgan kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, diskurs tahlili, kognitiv grammatika va shunga o'xshash juda ko'plab yo'nalishlarda antroposentrik tilshunoslik sohasiga aloqador butun dunyo olimlari qimmatli ma'lumotlar olishi mumkin bo'lgan kitoblar nashr qilingan. Endi esa ona tilisi ingliz tili hisoblangan Angliya, Amerika va Kanada olimlarining antroposentrik tilshunoslikning turli

yo'nalishlarida yozilgan mashhur darslik va kitoblari bilan muxtasar holatda tanishib chiqamiz:

Britaniyalik kognitiv tilshunoslik vakillar V.Evan va M.Grin "Kognitiv tilshunoslik" kitobi mualliflari hisoblanadi. Ushbu kitob kognitiv tilshunoslik sohasi uchun keng qamrovli va nufuzli bo'lgan to'liq qo'llanmadir. Barchamizga yaxshi ma'lum bo'lganidek, kognitiv tilshunoslik zamonaviy va juda ta'sirli tafakkur maktabi bo'lib, u inson tili, ongi va ijtimoiy xulq-atvorini o'rganishni o'z ichiga oladi. Kitob bu yo'nalishdagi asosiy nazariy manbaalarni o'rganadi va kognitiv tilshunoslik tomonidan o'rganiladigan keng doiradagi sohalar – til, ongning barcha jihatlari, shuningdek, kognitiv lingvistikaning matn, adabiyot va nutqni o'rganishda qo'llanilishi va kengaytmalari haqida, o'zbek tilshunosligi uchun nisbatan yangi yo'nalish hisoblangan kognitiv semantika, kognitiv grammatika haqida to'liq va qiziqarli sharh beradi. Kitob kognitiv lingvistik nazariyalarni, shuningdek, lingvistik, psixologik va xulq-atvor hodisalarining tavsiflovchi xususiyatlarini taqdim etishga teng darajada e'tibor beradi. Shu bilan birga, o'quvchini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan inson tili, ongi va xatti-harakatlarini o'rganishda qo'llaniladigan usul va yondashuvlar bilan tanishtiradi [13; 857-b.].

Mashhur amerikalik tilshunos va faylasuf Jorj Filip Lakoff inson hayotiga konseptual metaforalarning katta tasiri haqidagi qarashlari bilan mashhurdir. U 1980-yilda Mark Jonson bilan birgalikda "Metaphors We Live By" ("Birga yashayotgan metofralarimiz") nomli kitobni nashr qildirgan. Bu kitobda metaforalar, metaforik konsept mavzulariga oid chuqur xulosalar bayon qilingan. Bu kitobni o'qigandan keyin kundalik hayotda metaforalarning qanchalik kuchli vosita ekanligi va keng tarqalgani haqida fikrga ega bo'lishimiz mumkin. Lingvistik dalillarga asoslanib insonning oddiy konseptual sistemasi tabiatan metaforalarga asoslanganligi chuqur dalilab berilgan [14; 128b.]. Ushbu tilshunosning yana bir kitobi "Ayollar, olov va xavfli narsalar" ("Women, fire, and dangerous things") deb nomlanadi. Kitobning nomi (Avstraliyaning bir qismida gapiriladigan) dyirbal tilining ot sinf tizimidan ilhomlangan bo'lib, unda "ayol" turkumiga ayollar, suv, olov, zo'ravonlik va ayrim

hayvonlarning otlari kiritiladi. Bu kitob birinchi marta 1987-yilda Chikago Press universiteti tomonidan nashr etilgan bo'lib, kitobda semantikaga asoslangan bilish modeli ilgari surilgan. Kitob kognitiv jarayonda bir sohadan ikkinchisiga kognitiv tuzilmalarni xaritalash sifatida ta'riflangan metaforaning markaziyligiga urg'u beradi. "Ayollar, olov va xavfli narsalar" kognitiv metaforalarning madaniy jihatdan o'ziga xos va insoniy-universal bo'lgan bir necha tillarning grammatikasiga ta'sirini o'rganadi va klassik mantiqiy-pozitivist yoki Angliya-Amerika maktabi falsafiy konsepsiyasining cheklovlarini isbotlaydi [15; 631-b.].

Amerikalik tilshunoslar Laurens Robert Horn va Gregory Vardlarning "The Handbook of Pragmatics" deb nomlangan qo'llanmasidan ham ko'plab qimmatni ma'lumotlarni olish mumkin. Kitob to'rt qismga bo'lingan. Kitobda pragmatik nazariya doirasidagi asosiy kichik sohalar: implikatura, presuppozitsiya, nutqiy harakatlar, havola, deysis, pragmatika va diskurs strukturalar, pragmatika va uning aloqador sohaları, kognitiv nazariyadagi pragmatikaning roli ko'rib chiqiladi [16; 867-b.].

Metodologiya. Izlanishimiz davomida ilmiy tadqiqot metodlarining nazariy turiga kiruvchi deduksiyadan keng foydalanildi. Ingliz va o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma tasnifiy, chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalanib tahlil qilindi hamda nazariy ma'lumotlar analiz yoki sintez usuli asosida o'rganildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan 2020-yilda nashrdan chiqqan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da paradigma terminiga "paradigma [yun. paradeigma – misol, namuna] tilsh. 1. Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashtiruvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlovchi tizimi. 2. Biror so'zning turlanish yoki tuslanish shakllari tizimi" [3; 217-b.] tarzida izoh berilgan.

2022-yilda nashr qilingan to'ldirilgan va qayta ishlangan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi) paradigma so'zining yuqoridagi ikkita izohiga qo'shimcha tarzda quyidagi yana bir ma'nosi keltirilgan: "Ilmiy jamoada ma'lum vaqt

ustuvorlik qiluvchi tadqiqot usullari majmui: ilmiy-nazariy fikrlar, qarashlar va konsepsiyalarning yetakchi tizimi, metodologik asosi. Shuningdek, paradigma muammolarni tanlab olish uchun asos hamda tadqiqot masalalarini yechish uchun na'muna ham bo'la oladi. (Sharq yulduzi) Badiy madaniyat tarixiy jarayonda paradigmalarni hosil qilish bilan qatnashadi. "Sharq yulduzi". Adabiyotshunoslar ta'rificha, umuminsoniy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari asosan quyidagi paradigmalar zamidida yoritiladi... (Sharq yulduzi)" [4; 642-b.].

Mashhur ingliz elektron lug'atida paradigma so'ziga "nimaningdir modeli, nimagadir juda ham aniq va tipik misol", deb tarifi berilgan: 1. a model of something, or a very clear and typical example of something: Some of these educators are hoping to produce a change in the current cultural paradigm. [el. lug']. 2. a set of linguistic items that form mutually exclusive choices in particular syntactic roles. English determiners form a paradigm: we can say "a book" or his book" but not "a his book".

Ilmiy paradigma (yunoncha "misol, namuna") fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan va shu asosda fanning turli bo'limlarida o'xshash bo'lgan, o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyi hisoblanadi. Mazkur termin 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi Tomas Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" (The Structure of Scientific Revolutions) asarida muomalaga kiritilgan [5; 13-b.].

N.Mahmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" deb nomlangan maqolasida paradigma so'zi dastlab fizika faniga nisbatan ishlatilgani, Tomas Kun o'z asarida "paradigma o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisidir" degan fikrlarni bildirib o'tganligi haqida ma'lumotlar yozgan [6; 6-b.]. Bu fikrlar isboti uchun misol keltiradigan bo'lsak, XIX va XX asrlarning paradigmaları qiyoslanganda, XIX asrni tarixiylik, XX asrni esa strukturalizm belgisi ostida kechganini ko'rish mumkin.

XX asr o'zbek olimlarining paradigma atamasiga ta'riflari:

Paradigma – bir-biri bilan ma'lum tartibda moslashgan til birliklari qatoridir [7; 20-bet.]. Bu ta'rif muallifi grammatik paradigma tushunchasining so'z yasash, sintaksis, leksikada ishlatilishi tilshunoslarning til xodisalarini tizimiga chuqurroq kirib borishga intilishi bilan tushuntirilishini, paradigmatic munosabatlarning ko'p qirrali xususiyatlarini o'rganish tilshunoslarga til tizimida turli xildagi paradigmalar bo'lishini aniqlash imkonini berishini, paradigma tushunchasi til tuzilishining turli sathlarida lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar tizimi bilan bog'langanligini, til birliklarining paradigmaga birlashishi ular orasidagi o'xshashliklarning ma'lum xususiyatlariga asoslanishi haqidagi fikrlarini o'z dissertatsiyasida keltirgan. Bunga qo'shimcha tarzda olim sintaksisdagi paradigm – gap paradigmasi – gap markaziy asosi bo'lgan kesimni ifodalashning morfologik vositalarining o'zgarishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishini o'z dissertatsiyasida yozib, fikrlarini rus olimlari V.M.Solnsev, D.N. Shmelyov, N.Y.Shvedova kabilarning fikrlari bilan isbotlab beradi va frazeologik paradigmalar haqida ham juda ko'p ma'lumotlarni dunyo olimlarining fikrlari orqali bayon qiladi. Bundan tashqari, yana O.S.Axmonovning “berilgan leksik birliklarning so'z o'zgarishi shakllarining majmuyi” [8; 310-b.] degan ta'rifini ham keltirib o'tgan.

N.Erkaboyeva o'zining “Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasi kirish qismida dunyo tilshunosligida lisoniy birliklar orasidagi leksik-semantik munosabatlarni ifoda etuvchi sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, giponimiya, meronimiya, polisemiya kabi paradigmalar chuqur tadqiq etilganligi haqida ma'lumot keltirgan [9; 5-b.].

Antroposentrik paradigma antroposentrik tilshunoslikning asosi hisoblanadi. Antroposentrizm so'zi yunoncha antropos – inson va centrum – markaz so'zlaridan olingan. Tilning obyektiv xususiyatlariga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'rinda bo'lib, til inson shaxsini tarkib toptiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. N.Mahmudov maqolasida rus

adibi S.Davlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” va V.A.Maslovaning “inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish va idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi” degan o'rinli fikrlarini keltirgan [6; 8-b.].

Ilmiy manbalarga ko'ra, antroposentrik tilshunoslik ingliz va rus tilshunosligida kamida ikki asrdan ko'proq tarixga ega, o'zbek tilshunosligi uchun nisbatan yangi va muhimlik darajasi bugungi kunga juda yuqori hisoblanadi. Rossiya tilshunosligida antroposentrik yondashuv atamasi eng faol va keng ilmiy doiralarga tarqalgan. Amerika va G'arbiy Yevropa tilshunosligida esa bu yondashuv ko'proq kognitiv lingvistik yoki pragmatik tilshunoslik nomi ostida shakllandi. Agar sistem struktur tilshunoslikning asosiy e'tibori sof lingvistik masalalarga qaratilgan bo'lsa, antroposentrik yo'nalishdagi izlanishlar markazida til va uning egasi bo'lgan insonlarning o'zaro munosabatlari, nutqning yaratilish mexanizmlari, tilning jamiyatdagi o'rni, til va madaniyat, tilning milliyligi kabi muammolar yotadi. Mazkur yo'nalishlar til rivojlanishining ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda, tashqi ta'sir muammolari, til taraqqiyotining ekstralingvistik omillari bilan shug'ullanmoqda [10; 14-b.]. Buning natijasida tilshunoslikda yangi sohalarining paydo bo'lganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu sohalar kognitiv tilshunoslik, pragmatik lingvistik, lingvokulturologiya, assotsiativ tilshunoslik, psixolingvistik, neyrolingvistik kabi bir qator yo'nalishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlarda paradigmalar bir-birini o'zgartirmasdan, aksincha, biri boshqasini to'ldirishi va birga yashashi haqidagi o'rinli fikrlar ko'p uchraydi. Demak, antroposentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisa bo'lib, tilni jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganadi va bu jarayonda inson asosiy o'ringa chiqadi. Bugungi tilshunoslik asosiy makroparadigma antroposentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma) sanaladi. Ushbu paradigma tilni jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilardan bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etadi va bu aloqadorlikni yoritishda inson “oltin ko'pri” vazifasini o'taydi” [18; 24-b.]. Tadqiqotchilarning

fikricha, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik paradigmalar antropotsentrik paradigma tarkibiga kiruvchi miniparadigmalar hisoblanadi. Kelajakda tilshunosligimizda antroposentrik tilshunoslik yoki paradigmalar, ularning turlari haqida to'liq ma'lumotlar jamlangan monografiya yoki kitoblar to'plamlari nashr qilinishi tilshunoslik yo'nalishining yanada boyishiga xizmat qilishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3-jild. Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti iniversiteti, 2019.
6. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5.
7. Umirova L.Sh. Hozirgi zamon ingliz tilida fe'l frazeologik paradigma: Filol. fan. b. fals. dokt.(PhD)...diss. – Samarqand, 2004.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Изд. “Советская Энциклопедия”, 1996.
9. Erkaboyeva N. Ingliz va o'zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss.
10. Zokirova S.M. Tillar tadqiqida kontrastiv lingvistika ilmiy paradigmasining o'rni: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) ...diss. – Farg'ona, 2017.
11. Lingvistik antroposentrizm va o'zbek tilshunosligi. // O'zbek tili va adaboyoti. – Toshkent, 2022. – №5.
12. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cognitiv Linguistics. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
13. Vyvyan Evans. Melinie Green. Cognitive Linguistics An Introduction. Edinburgh University Press. – Edinburgh, 2006.
14. Jorj Filip Lakoff, Mark Jonson. Metaphors We Live By. – The University of Chicago, 1980.
15. Jorj Filip Lakoff. Women, fire, and dangerous things. – The University of Chicago Press United States of America, 1987.
16. Laurence R. Horn. Gregory Ward. The Handbook of Pragmatics. Blackwell publishing. – Australia, 2006.
17. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/paradigm#google_vignette
18. Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б.24-25.

